

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**  
**International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAK TABI O'QUVCHILARIDA HAYOTIY  
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Sh. Aripov**

FarDU "Pedagogika" kafedrasи o'qituvchisi

P.f.b.f.d.(PhD)

**Mirzaliyeva Dilorom**

FarDU Pedagogika va psixologiya yo'naliши

21.130-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning mazmuni, pedagogik ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan. Muloqot, qaror qabul qilish, stressni boshqarish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** hayotiy ko'nikmalar, pedagogik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv refleksiya, konstruktivizm, kompetensiya.

### **KIRISH**

Zamonaviy ta'lif tizimi faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchini hayotga tayyorlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

UNESCO va UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiylar asosida hayotiy ko'nikmalar – bu shaxsning real hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, psixologik va intellektual kompetensiyalar hisoblanadi. Ular qatoriga tug'ri muloqot qila olish, muammolarni hal qila olish, qaror qabul qila olish, o'zini anglash va boshqarish, jamoada ishslash kabi ko'nikmalar kiradi.

Bugungi ta'lilda hayotiy ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Muomala va muloqot ko'nikmalari;
- Qaror qabul qilish va muammoni hal qilish ko'nikmalari;
- O'zini anglash va boshqarish ko'nikmalari;
- Stressni boshqarish va emotsiyal barqarorlik ko'nikmalari;
- Tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari;
- Jamoaviy ishslash ko'nikmalari.

Tadqiqotda konstruktivistik, kompetensiyaviy, reflektiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida mazkur ko'nikmalarni maktab o'quvchilarida shakllantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Xorijiy olimlar (John Dewey, D. Kolb) qarashlari asosida bu ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash usullari ochib berilgan.

O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**  
**International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

Konstruktivistik yondashuv: o‘quvchining shaxsiy tajribasi va faol ishtirokiga asoslangan o‘qitish, bo‘lib J.Piaget va L.Vygotsky tomonidan ilgari so‘rilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv: bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni real hayotda qo‘llay olish qobiliyatiga yo‘naltirish.

Faoliyatga asoslangan yondashuv: o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida tarbiyalash.

Refleksiv yondashuv: o‘z-o‘zini anglash va baholash orqali shaxsiy o‘sishni ta’minlash hisoblanib, D.Kolb bu yondashuv asosida ko‘plab izlanishlar olib brogan.

Tadqiqot Farg‘ona viloyati So‘x tumani va Farg‘ona shahridagi umumta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tajriba davomida muloqot qilish, stressni boshqarish, tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha metodik mashg‘ulotlar, treninglar, suhbatlar o‘tkazildi. Natijada o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va o‘ziga bo‘lgan ishonch ortdi.

Bundan tashqari tadqiqotda konstruktivistik, kompetensiyaviy, reflektiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida mazkur ko‘nikmalarni mifik o‘quvchilarida shakllantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Xorijiy olimlar (John Dewey, D. Kolb) qarashlari asosida bu ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash usullari ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish – ularni mustaqil fikrlaydigan, jamiyatga foydali shaxs sifatida kamol toptirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu borada pedagoglar zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tayanib, o‘quvchilarning shaxsiy rivojiga yo‘naltirilgan metodlarni samarali qo‘llashlari lozim. Bundan tashqari, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarni hayotga tayyorlashning muhim bosqichidir. Ular mifik ta’limi mazmunining ajralmas qismi bo‘lib, kompetent shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
2. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. New Jersey: Prentice Hall, 1984.
3. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 2001.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. UNESCO. Life Skills: Education for Children and Adolescents in Schools. UNESCO Publishing, 2004.
6. UNICEF. Life Skills-Based Education for Children and Adolescents in Schools. Programme Document, 2005.
7. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
8. Saidov A.A. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.
9. Xasanboyeva O.S. Pedagogik yondashuvlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – T.: TDPU, 2021.

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.  
International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

10. G‘ofurov K. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Andijon, 2019.

